

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA TOVAR MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI TAHLIL QILISH

Hamidov Nizomjon Farhod o'g'li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
iqtisodiyot fakulteti talabasi.

Orcid:0009-0009-3478-7722

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17105294>

Annotatsiya. Hozirda butun dunyoda korxonalarda tovar moddiy zaxiralar hisobini tahlil qilishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ahamiyati va undagi o'rni sezilarli darajada oshdi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlangan yetakchi mamlakatlar tajribasini umumlashlashtiradi, balki buxgalteriya hisobi va hisobotining milliy tizimlarini rivojlantirishga ham moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini to'g'ridan-to'g'ri milliy amaliyatga tadbiq etish orqali hamda xalqaro va milliy standartlar talablarini yaqinlashtirish orqali faol ta'sir kursatadi.

Kalit sozlar: MXHS, Tovar-moddiy zaxiralar quyidagi holatlarda tan olinadi, Tovar-moddiy qiymatliklarni inventarizasiysi.

Kirish. O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga munosib tarzda kirib borishida kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarining faoliyat yuritishi, ayniqsa pandemiyadan keyingi og'ir iqtisodiy davrda kishilarni ish joylari va daromad manbai bilan ta'minlash, joylarda tashabbusni rag'batlantirish, aholi o'rtasida shakllangan tadbirkorlik ko'nikmalarini ommalashtirish, milliy, madaniy boyliklarni butun dunyoga namoyon etish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Tovar moddiy zahiralari korxonaning aylanma mablag'larida faoliyat sohasiga qarab, 30 foizdan 90 foizgacha bo'ladi. Korxonaning moliyaviy va iqtisodiy ahvoli ko'p jihatdan ana shu tovar moddiy zaxiralaridan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Har bir ishlab chiqarish korxonasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining to'xtovsiz davom etib turishida tovar moddiy zahiralarining o'rni juda kattadir.

Muxokamalar va natijalar.

Ishlab chiqarishning moddiy sharoitlaridan biri mehnat buyumlari hisoblanadi. Amalda ular TMZlar deb ataladi. Asosiy vositalardan farq qilib, TMZlar bir ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'la ravishda mahsulot tannarxiga o'tkazadi. Materiallarning har bir turi bo'yicha normativ miqdori korxona tomonidan mustaqil belgilanadi. Xo'jalik yuritishning yangi tizimi sharoitida moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini asosiy TMZlar tashkil qiladi. Masalan, mashinasozlikda –metall, mebel ishlab chiqarishda yog'och, gazlama ishlab chiqarishda –paxta va boshqalar.

Qazib chiqaruvchi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari xom ashyo deb ataladi.

Masalan, neft, ruda, paxta, qand lavlagi va boshqalar. Boshqa orxonalardan olinadigan mashina va agregatlarning to'g'ri detallari va boshqalar yarim tayyor mahsulotlar deb ataladi.

Mol etkazib beruvchi yoki transport tashkiloti omboridan TMZlarni olish uchun ta'minotchiga buxgalteriya tomonidan 10-15 kun muddati bilan ishonchnoma beriladi.

Ishonchnoma olish huquqiga ega bo'lgan xodimlar ro'yxati xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tomonidan imzolanadi. Ishonchnoma yozish uchun asos bo'lib shartnomalar, naryad, to'lovnoma, buyurtmanoma yoki mol etkazi beruvchining boshqa hujatlari xizmat qiladi.

Beriladigan ishonchnomalar eng avval ishonchnomalarni ro'yxatga olish daftarida qayd etiladi. Bu daftarvaraqlari oldindan raqamlanib, tiqilib so'rg'uch bilan muhrlanadi. Daftarning oxirgi betida bosh buxgalter imzosi bilan quyidagi yozuv qayd etiladi: «Bu daftarda hisob varaqlar raqamlangan va tikib chiqilgan» Varaqlar soni harf (so'z) bilan yozilishi kerak.

Xulosha

Tovar-moddiy zaxiralar xisobida boshqaruva va moliyaviy hisob ob'ektlarini aniq belgilab olinishi va uni tadqiq etish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ushbu masala yuzasidan aniq chegaralanish xaligacha belgilanmagan. Bu nafaqat material xarajatlarida, balki xisobning boshqa ob'ektlarida xam ko'zga tashlanadi. Tovar-moddiy zaxiralar baxolanishi va uni auditni takomillashtirish yuzasidan yuqoridagi fikr va muloxozalarni umumlashtirgan xolda quyidagi xulosalarga kelindi: Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida xujalik faoliyati jarayonining yakuniy bosoqichidan olinadigan tayyor maxsulotlarning tannarxidagi sarflangan xom-ashyo va materiallarning ulushini imkoniyati boricha kamaytirish muxim o'r'in tutadi, chunki, talab va taklifdan kelib chiqqan xolda ularga o'rnatilgan baxo (chunki, ushbu baxolarni tartibga solib turuvchi omil – bu tannarxdir) maxsulotlarning xaridorgirlilik darajasini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.B.Muxametov. B.Matasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyo nashr. 2023.-347 b
2. A.B.Muxametov. U.Chorshanboyev. G.Turayeva T.:Boshqaruva hisobi darslik. Ziyo nashr. 2024.-169 b
3. Gulizahro, T., & Jaloliddin, X. (2023). SANOAT KORXONALARINI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
4. INNOVATSIYALAR O'RNI. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 1(6), 219-221.
5. Gulizahro, T., Eldor, T., Asilbek, S., & Muhammadqodir, B. (2023). Asosiy vositalar hisobi va ulardan samarali foydalanish tahlili. "Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi, 2(10), 67-69.
6. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story ranslations. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 202-208.
7. Abdigapparovich, I. H. ASALARICHILIKDA XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARNI TAQSIMLASHDA YANGI YONDASHUVLAR. "OZUQA EKINLARNI YETISHTIRISHDA EKOLOGIK TOZA OZUQALARNI YETISHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLARI" XALQARO ILMUY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLAR TO'PLAMI.
8. Abdigapparovich, I. H. ASALARICHILIK XO 'JALIKLARIDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. "OZUQA EKINLARNI YETISHTIRISHDA EKOLOGIK TOZA OZUQALARNI YETISHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLARI" XALQARO ILMUY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLAR TO'PLAMI.
9. Ergashev, F., & Ishturdiev, H. (2024). Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(9).